XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - avgust VI-41-80-1-24-K/22 Marhamat tumani hokimligi

Marhamat tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24–moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Marhamat tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo‘shimcha mablag‘lar 1287687.0 ming so‘mni tashkil etganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimligining “2022 yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha mablag‘larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo‘yicha” taklifi maqullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag‘lar ajratilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Abdurazzaqov), tuman moliya bo‘limi (Maxmudov) va g‘aznachilik bo‘linmasi (Sharipov) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda

yo‘naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi matbuot hizmati (Ismonov) mazkur qarorni matbuotda e'lon qilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Baxodirov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Abdurazzaqov) zimmalariga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Б. Юлдашев**

Xalq deputatlari Marhamat tuman
Kengashining
2022 yil 1 avgustdagi
VI-41-80-1-24-K/22-son qaroriga
1-ilova

Marhamat tuman mahalliy byudjetining 2022 yil

2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish hisobi

ming so‘mda

№	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Mablag‘ ajratish maqsadi	Ajratilayotgan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratish uchun asos
1	Tuman hokimligi	“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	193153.0	PQ-5020, 05.03.2020 y.
2	Tuman hokimligi	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	193153.0	PQ-92, 19.01.2022 y.
3	Tuman hokimligi	“Temir daftar” jamg‘armasiga	193153.0	VM 213-F, 22.04.2020 y..
4	Tuman hokimligi	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga	386306.0	PQ-5072, 13.04.2021 y.
5	Tuman hokimligi	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga 2021 yildan bo‘lgan qarzdorlik uchun	288000.0	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiya-sining 07.06.2022 yildagi №02-RA 1-8870 sonli topshirig‘i
6	Tuman hokimligi	Matbuot kotibi hamda Xalqarvar komissiyasi xodimlari uchun ish xaqi to‘lovlariga	33922,0	
	JAMI	**xxx**	**1287687.0**	**xxx**